

TARIXIY ROMANLARDA HAQIQAT IZLARI: IKKI ADIB, BIR MAQSAD.

Ergasheva Mohim

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universitetining

tarjima nazariyasi va amaliyoti

fakulteti 4-bosqich talabasi

mohimergasheva556@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola o'zbek va rus adabiyotlaridagi tarixiy realizmning qiyosiy tahliliga bag'ishlangan bo'lib, maqolada Abdulla Qodiriyning **“O'tkan kunlar”** romani va Aleksandr Pushkinning **“Kapitan qizi”** asarlari o'zaro qiyosiy tahlil qilinadi. Muallif har ikki asarda tarixiy voqealar, ijtimoiy hayot, insoniy fazilatlar va muhabbat mavzularining yoritilish usullarini tahlil etadi. Qodiriy romanida XIX asrning ikkinchi yarmidagi O'zbekiston (Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi) ijtimoiy-siyosiy hayotini chuqur badiiy talqin etganligi, Pushkin asarida XVIII asr Rossiyasidagi Pugachev qo'zg'oloni davridagi insoniy kechinmalarni aks ettirilishi yoritilgan. Maqolada Otabek va Pyotr obrazlari o'rtasidagi mushtarak va farqli jihatlari ochib beriladi. Kumush va Masha timsollari orqali esa ayol sha'ni, muhabbati va jasorati tahlil qilinadi. Tahlil davomida muallif ikki asardagi g'oya, obrazlar tizimi, tush motivlari, muhabbat va sadoqat masalalaridagi o'xshashlik va farqlarni chuqur tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: Tarixiy roman, ijtimoiy realizm, Otabek, Pyotr Grinev, ijtimoiy adolat, insoniylik, muhabbat, sadoqat, tarixiy voqea, tush motivi.

Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romani — o'zbek adabiyotida ilk tarixiy roman sifatida e'tirof etilgan, ijtimoiy-realistik ruhdagi takrorlanmas asardir. “O'tkan kunlar” romani tarixiy realizm asosida yozilgan bo'lib, unda XIX asrning ikkinchi yarmi – Buxoro amirligi va Qo'qon xonligining siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotini

chuqur tahlil etadi. Qodiriy tarixiy voqealarni tasvirlar ekan, ularni g'oyaviy jihatdan tahlil qiladi, ularni zamonaviylik mezonlari bilan baholaydi. Asardagi ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik, urushlar, savdogarlarga solinayotgan soliq bosimi, ayollarning huquqsizligi– bularning barchasi tarixiy haqiqatga asoslangan holda yoritilgan. Misol uchun, Marg'ilon va Toshkent voqealari, Amir Nasrulloh hukmronligi davrida sodir bo'lgan zulm va mahalliy urf-odatlarining zo'ravonlikka sabab bo'layotgani real tarixiy holatlarga tayanadi. Qodiriy bu voqealarni badiiy obrazlar orqali ochib berar ekan, tarixiy haqiqatni shunchaki hujjatlashtirmay, uni estetik tafakkur bilan uyg'inashtiradi. Romandagi asosiy obrazlar – Otabek, Kumush, Yusufbek hoji, Zaynab, Hasanali ota – barchasi muayyan g'oya va ijtimoiy qatlamlarni ifodalaydi. Otabek obrazida muallif yangi fikrli, ma'rifatli, halol savdogar timsolida kelajak jamiyatining ideal vakilini yaratadi. Uning Kumushga bo'lgan muhabbati, otasiga sadoqati, jamiyatdagi adolatsizlikka qarshi o'zbek adabiyotidagi ilk kompleks psixologik obraz sifatida qabul qilinadi. Kumush obrazi orqali esa Qodiriy o'z davrida ayol masalasini ko'taradi – u o'z or-nomusini, sevgisini, haqqini himoya qila oladigan jasoratli va aqlli ayol sifatida tasvirlanadi. Bundan tashqari, roman ijtimoiy hayotda ayollarning og'ir ahvolini ham yoritadi. Kumushning onasi Oftob oyim obrazi o'ziga xos ayol timsoli sifatida yorqin aks etadi. U o'z fikrini eriga bemalol ayta oladigan, o'sha davrdagi qizlarni kelinlikka uzatishdagi holatlarga qarshi chiqadigan, qattiatli ayol sifatida tasvirlanadi (ammo u Mirzakarim qutidorni hafa qilib qo'ymaslik uchun qizining to'yiga rozilik beradi). Ayollar erkinligi yo'qligi, ko'p xotinlilik masalalari Homid xotinboz obrazi orqali ochiq ko'tariladi. Bundan tashqari Homidning obrazida Qodiriy o'sha vaqtdagi erkaklar axloqining tuban darajaga tushgani, ikkiyuzlamachilik va Qo'rboshi obrazi orqali poraxo'rlikni tanqid ostiga oladi. Yusufbek hoji obrazi mulohazali, keng fikrli, e'tiqodli (buni xotiniga qilgan muomalasidan, Kumushning Yusufbek hoji otamni bizga o'git berganlarida yuzlaridan, so'zlaridan nur yog'iladi va o'z otamdan ham ko'proq yaxshi ko'rib ketaman degan so'zlaridan bilsak bo'ladi), bir so'z bilan aytganda haqiqiy sharq otasi sifatida tasvirlanadi. Hasanali ota, Otabekning “ma'naviy ota” si, Otabek haqida Yusufbek hojidan ham ko'proq o'ylaydigan,

qayg'uradigan shaxs. Zaynab obrazi orqali jamiyatdagi fitna ochib beriladi. O'zbek oyim obrazi dumbul tabiatliligi bilan ayollarning ahmoqligini, har xil irim-sirimlarga, sehriga ishongaligi orqali o'sha davrda din va e'tiqod qandaydir ma'noda izdan chiqqanini ko'rsatib beradi. "O'tkan kunlar" – bu shunchaki muhabbat haqida emas, bu jamiyat, siyosat va axloqiy qadriyatlar haqida og'riqli haqiqatni aytuvchi roman. Qodiriy bu asar orqali o'zbek xalqini uyg'onishga, adolat, taraqqiyot va insoniylik sari intilishga da'vat etadi. Bugungi biz kabi o'quvchilar uchun ham bu asar tarixiy bo'lishi bilan birga o'z dolzarbligini yo'qotmagan hayotiy xitobdir.

Pushkinning rus madaniyati taqdiridagi o'rne benihoya buyuk. Aleksandr Sergeyevich Pushkinning ijod namunalaridan biri "Kapitan qizi" — bu nafaqat tarixiy roman, balki inson qalbi, axloqiy mas'uliyat va muhabbat sinovlari haqida hikoya qiluvchi chuqur asardir. Muallif ushbu asarda tarixiy g'alayonlar ichida qolib ketgan qahramonlarning taqdiri qanday kechganini ko'rsatib beradi. Asarda shunchaki muhabbat emas, balki uning fonida xalq muammosi yaqqol namoyon bo'ladi. Qissada 1773–1774-yillarda bo'lib o'tgan Pugachev qo'zg'oloni fonida shaxsiy hayot va insoniy fazilatlar tasvirlanadi. Pushkin bu roman orqali tarixni qayta tiriltiribgina qolmay, bir necha falsafiy savollarni o'rta tashlaydi: Inson kim? U qanday tanlov orqali o'zligiga erishadi? Haqiqat va sadoqat nima? Bu savollarga asarda Grinevning hayoti va qarorlari orqali javob topiladi. Shuning uchun ham bu asar faqat o'qilishi kerak bo'lgan tarix emas, balki har bir davr uchun dolzarb hayot darsidir.

Pushkin va Abdulla Qodiriy singari buyuk adiblar o'ziga xos, bir-birini takrorlamaydigan ikki asar yaratgan. Biroq bu asarlarning mushtarak tomonlari ham bor. Birinchi navbatda, bu mushtaraklik Otabekni Pyotrga taqoslaganda yaqqol seziladi. Masalan: asarning bosh qahramoni Otabek va unga eng yaqin bo'lgan kishilar: otasi Yusufbek hoji, muhabbati Kumush va sodiq xizmatkori Hasanali tasvirlangan bo'lsa, jadvalning quyi qismida, Otabekka qarshi bo'lgan, ashaddiy dushmani Homid berilgan. Xuddi shunday obrazlar tizimini Pushkinning "Kapitan qizi" povestida ham ko'rishimiz mumkin: asarning bosh qahramoni Pyotr va unga yaqin bo'lgan shaxslar: otasi Andrey Petrovich, muhabbati Masha, sadoqatli xizmatkori Savelich va unga

qarshi bo'lgan dushmani Shvabrin. Xuddi, Qodiriy asarida tasvirlangan obrazlar kabi bir xil darajalanadi. Masalan: Otabek-Pyotr, Yusufbek Hoji-Andrey Petrovich, Hasanali-Savelich, Kumush-Masha, Homid-Shvabrin. Bu kabi bosh qahramonlar Otabek va Pyotr taqdirning taqozosi bilan o'z yurtidan boshqa yerga kelgan shaxslardir. Lekin ularning bu yerlarga kelishidan maqsadi boshqa-boshqadir. Otabek savdo masalalari bilan kelgan bo'lsa, Pyotr vatan oldidagi burchini o'tash uchun harbiy xizmat yuzasidan keladi. Asarlarning asosiy voqealar rivoji ham aynan mana shu yerdan boshlanadi. Otabek Kumushni Marg'ilondan topsa, Pyotr ham suyukligini Belogor qal'asida uchratadi. Endi bosh obrazlarning "qora" va "kirliq" kunlariga sababchi bo'lgan ashaddiy dushmanlari Homid va Shvabringa to'xtalsak. Bularning Otabek va Pyotrغا asosiy dushmanligiga sabab, Homidning Kumushga mayli bo'lsa, Shvabrinni Mashaga mayli borligidadir. Otabek va Pyotrغا safar chog'ida birga hamroh bo'lgan, bir daqiqa ham ayrilmagan, yoshlikdan tarbiya qilgan va og'ir kunda ko'maklashgan, xatto jonini berishga tayyor bo'lgan Otabekning "ma'naviy ota" si Hasanali va Pyotrning jonkuyari Savelich obrazlariga e'tibor qaratsak. Ular ikkovi ham qul va xizmatkor. O'z xo'jalariga sodiq, g'amxo'r va sidqidildan xizmat qiladilar. Otabekning otasi Yusufbek hoji va Pyotrning otasi Andrey Petrovich Grinyov asarlarning asosiy qahramonlaridan biri. Bu qahramonlarning o'xshashlik tomoni vatan ravnaqi, yurt tinchligi va osoyishtaligi uchun jonini berishga tayyor shaxslardir. "O'tkan kunlar" dagi bosh qahramon Otabek obrazini olaylik. U yurt istiqloli, farovonligi, osoyishtaligi yo'lida jonini tikkan fidoyi shaxsdir. Binobarin, u o'limdan qo'rqmaydi, shirin jonidan or-nomusni ustun qo'yadi. Xo'rlikdan ko'ra o'limni afzal ko'radi. Bu narsani jallod Musulmonqul fitnachilikda ayiblanib, Qo'qon o'rdasiga keltirilgan Otabekka g'azab o'tini sochganda, u tahlikaga tushmaydi, "hukmingizni chiqaravering" – deydi bosiqlik bilan. Bunday javob Musulmonqulday battol kimsani ham hayratga soladi: "Dov yuraging bor ekan, yigit" - deydi zavqlanib. Oqibatda, Hasanali keltirgan, Normuhammad qushbegi tomonidan yozilgan xatni o'qigach, "uyatsiz ravishda Otabekka qarab iljayadi". Bu holatni muallif yana takrorlaydi: "Musulmonqul oqsolanib, o'z qo'li bilan Otabekka zarrin to'n kiygizar ekan:

-Otangizning katta xizmati soyasida o'limdan qutulganingizdek zarrin to'nliq ham bo'ldingiz, - deb yana bir qayta uyatsizlandi".[Abdulla Qodiriy, 2007:69].

Bu holatni "Kapitan qizi" asaridagi bosh obraz Pyotrda ham ko'rishimiz mumkin. Isyonchi Pugachyov Belagor qal'asini qo'lga kiritgach, o'zini shoh deb barchani ont ichira boshlaydi. Navbat Pyotrga kelganda, u olijanob o'rtoqlaridek: "Sen mening shohim emassan, sen o'g'ri va xoinsan" javobini berishga hozirlanib, uning yuziga tik qaraydi. Yana bir o'rinda "yolg'on podshoh" unga sodiq xizmat qilishini so'raydi, xatto knyaz qilishini aytadi. Bunga ham qat'iyat bilan "yo'q" javobini beradi. Isyonchidan Orenburgga ketishini so'raydi. "Pugachyov o'ylanib qoldi: "Agar javob bersam, - dedi u, - menga qarshi ish qilmaslikka va'da berasanmi?" Bunga javoban Pyotr va'da bera olmasligini, ixtiyor o'zida emasligini, qarshi chiqishini buyirsalar, qarshi chiqishini aytadi va "Jonim sening qo'lingda: ozod qilsang - qulluq; o'ldirsang - tepangda xudo bor; rostini aytdim" - deydi. Pugachyov ham bu javobni eshitib, xuddi Musulmonquldek hayratda qoladi: "O'ldiradigan bo'lsam o'ldirganim tuzuk edi, afv etgan ekanman, endi afv etay", - deb uni qo'yib yuboradi. Bundan tashqari, Pyotr dor ostidan qaytgach, o'yg'a toladi: "Badkorlar qo'l ostida turgan qal'ada turish, yoki uning tarafdorlariga qo'shilish ofitser uchun nomus",-deb o'zining ontiga sadoqatli ekanligini ayon qiladi. [Aleksand Sergeyevich Pushkin, 1985]. Yuqoridagi holatlardan ko'rinib turibdiki, har ikki qahramonda mardlik, yuksak ma'nodagi vijdon, haqiqatparastlik, dovyuraklik tuyg'ulari yaqqol ko'zga tashlanadi. Otabek Homid va uni hamtovoqlariga qarshi yakka o'zi kurashadi. Pyotr ham Shvabrin bilan Otabek kabi yakka o'zi kurashadi. Bu ikki qahramonning farqli jihati shundaki, Otabek uch dushman bilan olishsa, Pyotr birgina Shvabrin bilan duelga chiqadi. Ikkovi ham yaralanadi, lekin Otabek uch dushmanga bas kelgan holatda ularni o'ldiradi, Pyotrni dushmani esa omon qoladi. Otabekka xos xususiyatlardan yana biri, uning o'z atrofida qilarga xatto xizmatkoriga ham alohida bir hurmat bilan qaraydi va "Qulimiz" degan javobini hasanali uzoqlashgandan keyin beradi. Yana bir o'rinda Hasanalining: "Men sizni kimingiz?" savoliga javoban Otabek: "Otam bo'lmasangiz ham meni otaliq muhabbati bilan suygan sodiq va mehribon bir kishimsiz - yani ma'naviy otam" deydi.

Bu muomiladan ko‘rinadiki, Otabekning Hasanaliga nisbatan qanchalik mehr-muhabbati kuchliligi, uni ko‘klarga ko‘tarishi ayon bo‘ladi. [Abdulla Qodiriy, 2007]. Ikkinchi qahramonimiz Pyotr Otabekdan farq qilgan holda xizmatkoriga qo‘pol, qo‘rs muomila qilsa ham, u bilan tez-tez janjallashib qolsa ham ayb o‘zidaligini bilib, uni oldida o‘zini gunohkor sezadi va unda kechirim so‘raydi. “Bundan keyin bu xilda noma’qulchilik qilmaslikka, gaplariga quloq solishga” va’dalar beradi. Yana bir o‘rinda Mashani qutqarish uchun Belogor qal’asiga ketayotganda Savelich Pugachyov odamlari qo‘liga tushib qoladi va uni xizmatkor - ku deb tashlab qo‘ymasdan, uni qutqarishga shoshiladi. Bu holatdan Pyotrni Otabek kabi xizmatkoriga mehr-muhabbatini, jonkuyarligini, u uchun qayg‘urishini ko‘rishimiz mumkin. [Aleksandr Sergeyevich Pushkin, 1985].

Endi bu ikki qahramonning sevgi-muhabbat masalasidagi mushtarakligini ko‘rib o‘tsak: Otabek - chin muhabbat egasi. U Kumushni bir ko‘rishidayoq muhabbat dardiga mubtalo bo‘ladi, unga oshiq-u beqaror bo‘ladi. Pyotrda bu holat boshqacha tusda ro‘y beradi. Birinchidan, uning muhabbati Otabekdan farqli o‘laroq Mashani bir ko‘rishda, qiz unga dabdurusdan ma’qul bo‘lmaydi. Unga xushlamayroq qaraydi. Bunga sabab Shvabrinning qiz haqida: “Kapitan qizi Masha mutloq ahmoq qiz” deganligidir. [Aleksandr Sergeyevich Pushkin]. Rahmat Kumushni maqtab, Otabek muhabbatini alangalatgan bo‘lsa, Shvabrin esa Mashani yomonlaganligi uchun qizni birinchi ko‘rishdayoq Pyotrda boshqacha salbiy tasavvur uyg‘onadi. Bir necha hafta o‘tmasdan bu tasavvurlar o‘z aksini topadi. Chunki Pyotr Masha bilan qalin bo‘lib qolgan, uning ancha aqlli, ziyrak qiz ekanligiga ishongan edi. Bora - bora unga qattiq bog‘lanib qoladi. Buning natijasida, unda muhabbat tuyg‘usi paydo bo‘la boshlaydi va Otabek singari alangalanib, yuragida og‘ir dard paydo bo‘ladi. Kumush bilan Masha obrazlari orqali bizning ko‘z oldimizda: aql-zakovatli, zehnli, qalbidagi muhabbatni oshkor etmaydigan, muhabbat va baxtga o‘zini to‘la huquqli deb hisoblovchi va muhabbati toptalganda ham bu yo‘lda har qanday azoblarga bardosh bera oluvchi shaxslar gavdalanadi. Masalan: Kumushning zakovatini Otabek va Mirzakarim qutidor qamalganda, Yusufbek hojining xatini mahkamaga olib borib berganidan, bu xat

Otabekni qutqarish uchun kor qilishiga aqli yetganidan bilsak bo'лади. Masha esa Pyotr surgun qilinishga mahkum bo'lganida qirolicha bilan ko'rishib, bor haqiqatni aytib, Pyotrni qutqarib qoladi. Kumush Otabektan ayrilgach, boshqa turmush qurishni xohlamaydi. Masha ham huddi shundan Shvabringa xotin bo'lishni xohlamaydi. Otabek va Pyotrning ota-onasini qiyoslaydigan bo'lsak, Otabekning onasi Kumushni yoqtirmay uni Zaynabga uylantiradi va barcha ko'ngilsizliklarga sabab bo'лади. Ammo Kumush Toshkentga kelganidan so'ng uni Zaynabdan ham ortiq yaxshi ko'rib qoladi. Pyotrning ota-onasini ham boshida ularning muhabbatiga qarshi bo'лади ammo Masha ularning oldiga kelganidan so'ng uni yoqtirib qoladi va Pyotrni Mashaga uylantiradi

Hasanali Otabekning, Savelich esa Pyotrning eng sodiq, eng ishonchli kishilaridandir. Hasanali va Savelich uddaburon, hozirjavob, tadbirli, sadoqatli, aqli, g'amxo'r, vijdoni pok, mehribon – umuman oddiy insonga xos eng yaxshi fazilatlarni o'zida mujassamlantirgan kishilar obrazi sifatida tasvirlanadi. Endi Homid va Shvabringa to'xtaladigan bo'lsak. Bu qahramonlar faqat o'z manfaatini o'ylaydigan, chaqimchilik, tovlamachilikdan qaytmaydigan, xatto odam o'ldirish darajasiga bora olgan shaxslardir. Bunga misol qilib, Homid Otabekni o'ldirishga harakat qilgani, bir bechora gunohsiz Komilbekni o'ldirganini keltirish mumkin. Shvabrin ham odam o'ldirgani uchun Belogor qal'asiga kelib qolgan, Pyotrni o'ldirishiga ham oz qoladi. Homid Kumushga yetishish yo'lida Otabekka nohaq ayblov qo'yib, qo'rboshini pora bilan sotib oladi. Bunda Otabek oqlanib chiqqach, endi Musulmonqulga xat yuboradi. Bu bilan ham qanoatlanmagan Homid Kumushga Otabek nomidan soxta taloq xati yozib, unga jo'natadi. Otabek boshiga kelgan kulfatlarning bosh sababchisi bo'lgan dushmani Homidga qilgan yaramas, qabih ishlariga yarasha jasosini beradi. Shvabrinning ham Mashaga moyilligi bo'lganligi uchun Pyotrdan uni qizg'onadi. Pyotr qizni yoqtirib qolmasligi uchun Masha haqida yolg'on, bo'lmag'ir g'iybatlar qiladi, Pyotrning otasiga o'g'li bilan bo'lgan janjalni va uni yaralanganini aytib, Homid kabi nomsiz xat yo'llaydi. Bundan tashqari, Pugachyov qo'zg'olonidan so'ng Pyotrni nohaq ayblab, uning ustidan yolg'on ko'rsatma beradi. Pyotr ham Otabek singari

gunohsiz bo'lganligi uchun oqlanadi va Homid qilgan qabihliklar uchun jon taslim qilgan bo'lsa, Shvabrin xoinligi uchun qamaladi.

Ikki asar voqealaridagi tush ko'rish hodisasidagi o'xshashliklarni olaylik. Otabek ham, Pyotr ham tush ko'radi. Ularning tushlari orqali hayotlarida bo'ladigan katta ko'ngilsiz voqealar ayon bo'ladi. Otabek tushida gulzor, gulzorda ota-onasi va sigirni, shu sigir gullarni payxon qilganini, sigir sariq sochli alvastiga aylangani va hamma yoqni qorong'ilik qoplaganini ko'radi: Otabekning bu xil tush ko'rishi bekorga emas, albatta. Chunki tushning deyarli barcha qismlari o'tmish kechinmalar, voqealar bilan bog'langan. Agar gulzorni Otabekning muhabbati, Kumush deb tushunsak, yov – Homid va Otabekning ota onasi, ammo Otabek bu yovni bartaraf qilgan. Gullarni bosib yurgan sigir – Zaynab deyishimiz mumkin. Otabekning tushdan keyingi qismatida Zaynab Otabekning muhabbati Kumushni zaxarlab o'ldiradi. Yana tushdagi sigir alvastiga aylanadi, Otabek Kumush qabrini ziyorat qilgani borganda “jinni Zaynabni” ko'radi. Bu paytda Zaynab Otabekka o'sha alvasti singari edi. Ikkinchi qahramonimiz Pyotrning tush ko'rish holatini olaylik. U Savelich va yamshik bilan Orenburgga ketayotganlarida Pyotr tush ko'radi. Tushida uyiga borib qolgan bo'lib, uyiga kirsam, otasi betob bo'ladi, onasi otasidan duo olishini aytadi va u bemorni oldiga borib unga tikilib, otasi o'rnida qora soch-soqolli bir mujik yotganini va mujik turib unga bolta bilan hamla qilganini, Pyotr unga qarshi turolmaganini, uy o'liklarga to'lganini va ko'lmak bo'lib turgan qonga yiqilganini ko'radi. Uning ham keyingi qismati Otabek kabi tushida ayon bo'ladi. Pyotrqa yetakchilik qilgan shaxs keyinchalik isyonchi Pugachyov bo'lib chiqishini yuqorida ham ta'kidlagan edik. Shu kabi tushida ko'rgan otasi o'rnidagi mujik -Pugachyovdir. Tushida mujikni qo'lini o'pib, duosini olishdan bosh tortgani kabi, keyinchalik o'ngida Pugachyov qal'ani egallab, barchani qo'lini o'ptirib, o'ziga ont ichirganda Pyotr uni qo'lini o'pmaydi. Tushda ayon bo'lganidek, Pugachyov o'ziga bo'yusmagan barchani o'ldiradi, lekin shular ichidan Pyotrgina omon qoladi va Pugachyov unga yaxshi gapiradi.

Xulosa

Qodiriyning “O‘tkan kunlar” va Pushkinning “Kapitan qizi” asarlari insoniylik, muhabbat va ijtimoiy adolat g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan, tarixiy jarayonlar fonida shaxsiy fojialar va g‘alabalarni ko‘rsatgan yuksak badiiy durdonalardir. Har ikkala adib tarixiy voqealarni zamonaviy nigoh bilan talqin qilib, o‘z xalqini uyg‘onishga, adolat, ma‘rifat va insoniylik sari chorlaydi. Shu bois, bu ikki asar nafaqat badiiy zavq bag‘ishlaydi, balki har bir o‘quvchini o‘z-o‘ziga, jamiyatga va hayotga boshqacha nigoh bilan qarashga undaydi. Bu ikki asar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, balki har bir o‘quvchiga saboq va ruhiy ozuqa bo‘la oladigan bebaho merosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdalimova, S., & Rahimova, Z. (2023). Abdulla Qodiriyning “*O‘tkan kunlar*” romanidagi tarixiy va arxaik so‘zlar tahlili. *Theoretical and Applied Science Conference Proceedings*, (4), 120–126.
2. Abdiyeva, S. (2022). “*O‘tkan kunlar*” romanining ma‘naviy-ma‘rifiy ahamiyati. *Modern Oriental Development Journal*, (6), 88–93.
3. O‘rta Osiyo A. S. Pushkin nazarida. (n.d.). *Ziyouz.com – Adabiy va ma‘rifiy portal*. <https://ziyouz.com>
4. Pushkin, A. S. (1985). *Kapitan qizi: Povest*. Moskva: Xudojestvennaya literatura.
5. Qodiriy, A. (2007). *O‘tkan kunlar: Tarixiy roman*. Toshkent: Yoshlar nashriyoti.
6. Soatova, N. (2022). National literary tradition in Uzbek novel writing (on the example of Abdulla Qodiriy’s novel “*O‘tkan kunlar*”). *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(5), 43–50.
7. Usmonova, S., & Solijonova, Sh. (2023). Usage of Uzbek proverbs in Abdulla Qodiriy’s novel “*O‘tkan kunlar*”. *Tadqiqotlar.uz*, (2), 15–22.